

DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHRASEOLOGY

Nozanin Abdusamatova

2nd Stage Student of Uzbek language and literature

Abstract: The article has mentioned the ideas, about the concept of phraseology, its history, and study, also, as phraseological units used in works.

Key words. Phraseology, phraseological units, semantics, emotional-expressiveness, artistry.

KIRISH: Tilshunoslikning qator sohalarida o'rganilayotgan ilmiy tadqiqotlar, yaratilayotgan monografiyalar frazeologiya sohasining rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi.

Ayniqsa tilshunoslik fanining eng yosh sohalaridan biri hisoblangan frazeologiya sohasida qilinayotgan ilmiy tadqiqot masalalari ham bu borada yetakchi. Frazeologiya tilshunoslikda nisbatan yangi o'rganilayotgan yosh soha bo'lishiga qaramay, sohada hozirgi kunda talaygina izlanishlar olib borilmoqda.

Frazeologiya (yun. " phrasis" – ifoda, ibora va "logos" – ta'limot) – tilda mavjuda bo'lgan iboralar, ularning ma'nosi, hozirgi holati va kelib chiqish etimologiyasini, bugungi kunga qadar evolutsiyasi va muayyan tildagi frazeologizmlar majmuyini ifodalab keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazemalar nazariyasiga nigoh tashlaydigan bo'lsak, frazeologiya sohasi qadim davrlarga borib taqalsa-da, bu soha dastlab XIII asrda rus tilshunosligida o'rganila boshlandi. Rus frazeologiyasi fani tarixi B. L. Arxangelskiy, E. X. Rot, V.N. Teliya, L. I. Royzenzon, E. A.Malinovskiy ilmiy tadqiqotlarida atroflicha izohlab berilgan. Ammo bu sohaning ilk o'rganuvchisi shveytsar-fransuz tilshunosi Sharl Belli (1865-1947) hisoblanadi. U o'zining " Stilistika ocherki " va "Fransuz stilistikasi " nomli asarlarida frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritadi, frazeologik birlashmalarning tashqi va ichki belgilarini o'rganadi. Uning ta'limotiga ko'ra , bunday birlashmalarning struktural xususiyatlari uning tashqi belgisi, semantik tabiati esa uning ichki belgilari sanaladi. Frazeologiya asosan

frazeologik birlashmalarining semantik tabiatini, ichki belgilarini o'rganish bilan shug'ullanishi lozim degan fikrga keladi¹.

MUHOKAMA

Frazeologiyaning asosiy vazifalari esa:

- a) frazeologiya tarkibidagi so'zlarning ma'noviy izchilligini aniqlash,
- b) frazeologizmlarning omonimiyasi, sinonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash,
- c) frazeologiya va so'z turkumlarining o'zaro munosabatini oydinlashtirish kabi masalalar yotadi.

Frazeologiya mustaqil fan sifatida XX asr 20-30- yillarida shakllangan. O'zbek tilshunosligida esa bu soha o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. O'zbek tilshunoslari SH. Rahmatullayev, M. Sodiqova, I. Qo'chqortoyev, A. Rafiyev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatovlar kabi tilshunolar tomonidan tadqiq etib kelingan².

Ayniqsa bu sohada yaratilgan ilmiy izlanishlarda professor Bekmurod Yo'ldoshevning xizmatlarini alohida qayd etib o'tish joiz. Olimning "O'zbek tilining frazeologik stilistikasi" hamda "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari" nomli monografiyalarda frazeologiya sohasining barcha jabhalari keng ochib berdi. Bu monografiyalarda o'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining keying davrlarda shakllanishi hamda taraqqiyot bosqichi o'rganiladi va ushbu sohada kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarga alohida e'tibor berib o'tiladi.

Frazeologik birikmalar – tilda ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng bo'lgan, nutqqa tayyor holda olib kiriladigan barqaror birikmalar hisoblanadi. Masalan, "Qo'yi mingga yetmoq" – behad quvonmoq, "Hasratidan chang chiqdi" – ortiq darajada norozilik bildirib gapirdi, "Daqyunusdan qolgan" – juda eski, qadimgi kabilar. Quyida keltirib o'tilgan bu iboralarda ham ikki va undan ortiq so'zlar yordamida berilgan

1. A. V. Kunin "Sharh Bellining frazeologik teoriyasi", 1966-y. 17-23- bet.

2. B. Yo'ldoshev "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari"

birikmalar ma'nosi bir so'zga teng ekanligi kuzatiladi. Frazeologizmlarning yana bir muhim xususiyati u so'zlashuv nutqida faol qo'llanadi hamda bu jarayonda noo'rin takrorlarning oldini olib, nutqning emotsional-ekspressivligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlar nafaqat so'zlashuv nutqida, balki badiiy adabiyotda ham o'z o'rniga ega. Ma'lumki, badiiy adabiyotda til juda katta o'rin tutadi. Har qanday chinakkam ijodkor uchun so'z va frazeologizmlar bu fikrni aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarzi, yashash shaklidir. Har bir so'z yoki ibora badiiy asardagi g'oyaviy-estetik maqsadga ko'ra muayyan ma'no kasb etadi, zamiridagi mazmun orqali o'zining yangidan – yangi ma'no qirralarini namoyon qiladi³.

Badiiy adabiyotlarda frazeologizmlar faol qo'llanilsa-da, ammo yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Maktab darsliklarida ham frazeologizmlarning ma'nolarini izohlashda va frazeologik birikmalarni maqoldan (mazmunan aniq, xulosaviy tugal, ifodaviy ravon birlik), qo'shma so'zdan (ikki yoki undan ortiq morfemalar qo'shilishidan hosil bo'luvchi birlik) hamda gap (fikir aniq, ifoda tugalligiga ega bo'lgan birlik) kabi hodisalardan farqlash haunuzgacha muammoli bo'lib qolmoqda.

Frazeologizmlarni qo'shma so'z birikmalarida farqlashning asosiy unsurlaridan biri – OBRAZLILIKdir. A. Yo'ldoshev va F. G'aniyevlar ta'kidlaganidek, "Frazeologik birikmalar va qo'shma so'zlarni o'zaro qiyoslash usuli turkiy tillarga xos frazemalarning mohiyatini ochishga xizmat qiladi". A. Yo'ldoshev frazeologik birikmalarining mazmunini yoritishda ularning obrazlilikini birinchi o'ringa qo'yadi.

Frazemalar badiiy va publitsistik matnlarda qo'llanilar ekan, uning an'anaviy shakli turli xil o'zgarishlarga uchraydi. Ijodkorlar ibora yordamida kengaytirilgan metoforalar hosil qiladilar, uning komponentlarni yangi so'zlar hisobiga kengaytiradilar. Bunday ijodiy strukturual-semantik o'zgarishga uchragan iboralar

asosiy, umumtil frazemalar bilan muayyan komponent orqali obrazli uyg'unlik hosil qiladi 4.

³B. Yo'ldoshev " O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari" , " Erkin Vohidov poeziyasida frazemalarning uzual va okkazional uslubiy vazifalari " 2013-y. 261-bet

⁴ B. Yo'ldoshev. U. Rashidova " O'zbek tilining frazeologik stilistikasi " 2016-y 86-bet.

NATIJALAR

Frazemalarning badiiy asarlarda qo'llanilish sabablariga ko'ra ular quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganiladi:

1.Asardagi voqea- hodisalarga obrazli jihatdan mukammal, emotsional-ekspressiv jihatdan ta'sirchanligini oshirish, unda ifodalagan tushunchaga xos xarakter berishni ta'minlash maqsadida.

Masalan : " Oilamiz boshiga musibat tushgunga qadar u xonadonimizga **bo'zchining mokkasidek** qatnar, dadamlar bilan kechasi uzoq suhbatlashib o'tirardi ". (O. Yoqubov " Muzqaymoq")

2. Qahramonlar xarakteridagi va asarda ifodalagan syujetni baholashda qo'llanilayotgan frazeologizmlar salbiy yoki ijobiy bahoni ifodalash uchun qo'llanadi .

Masalan : " Bo'rining bolasini hovlidagi o'rikka bog'lab quygan edik. Arqonni uzib, **xayr – mazurni nasiya qilib juftakni rostlab qolibdi.** (X. To'xtabiyev "Sariq devni minib ")

3. Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun ham frazeologizmlarning xizmati katta.

Masalan : " Ammo Zebixon o'ziga munosib yigit izlardi... U mag'rur, **uni oyoq uchida ko'rsatadigan, ko'rkiga bino qo'ygan** Tursunboyning **yuragiga o't tashlamoqchi,** uning **ko'zini ochib** qo'ymoqchi edi. (S. Ahmad " Ufq")

4. Badiiy asarda ifodalanayotgan nutqiy jarayonda ekspressivlik (lot. “kuchaytirilgan, orttirilgan ifoda) ni kuchaytirish maqsadida ham faol frazemalardan foydalaniladi.

Masalan : “ Cholim **ham o’z kindigini o’zi kesgan xilidan** edi ” yoki “ **Ichagini boshiga salla qilib ketamiz** “. (O’. Hoshimov “ Ikki eshik orasi)

5. Badiiy asarda borayotgan jarayon davomida satira va yumor kabi holatlarni gavdalantirish maqsadida ;

Masalan : “ Ora – chora tor ko’chalar yo’limni to’sib qolsa ham, **tulki quvlagan tovuqday** sakrab o’tib ketar edim “. (G’. G’ulom “ Shum bola “) kabi holatlarning asar syujetida frazemalardan unumli foydalanganligiga bevosita guvoh bo’lishimiz mumkin.

Frazemalarning faol qo’llanilishini Alisher Navoiy, Muqumiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Oybek, Shuhrat , Hamid Olimjon , G’afur G’ulom, Maqsud Shayxzoda , Said Ahmad kabi ijodkorlar asarlarida o’ziga xos uslubda, semantic jihatdan yanada boyitilgan holda mahorat bilan foydalanganligini ko’rish mumkin. Keying davrlarda ijodkorlar tomonidan yaratilgan adabiy asarlarda ham frazemalardan unumli foydalanib kelinganini yaqqol ko’zga tashlanadi.

Frazeologik birliklarni badiiy matnlar orqali tahlil etish, o’rganish mazkur birliklarning nutqda qo’llanish o’rni, semantikasi va stilistikasini ochib beradi.

Xulosa. Frazeologik birliklar nutqni boyituvchi va ta’sirchanligini oshiruvchi, unda ifodalangan voqea-hodisaga obrazlilikni va badiiylikni ta’minlovchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. A. Abdullayev “ Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati // O’zbek tili va adabiyoti “ 1997-y, 36-39-b;
2. A. Kunin “ Charl Bellining frazeologik teoriyasi “ 1966-y, 17-23-b;
3. B. Yo’ldoshev “ O’zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari “ 2013-y 36-37, 261-b;